



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi 293 Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari 300 Xodjayeva Matlyuba Rustamovna	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish 304 Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi	304



O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KASBIY SALOHIYATINI ANIQLASHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Sun'iy intellekt kafedrasida tayanch doktoranti

ORCID:0009-0000-1408-2965

Annotatsiya: O'zbekiston ta'lim tizimi raqamlashtirilayotgan sharoitda yoshlar o'rtasidagi kasbiy ko'nikmalar nomuvofiqligini kamaytirish hamda salohiyatni erta aniqlash dolzarbdir. Maqolada o'rta maktab o'quvchilari uchun FuturePath AI intellektual platformasi taklif etiladi va nazariy asoslanadi. Sun'iy intellektga tayanuvchi ushbu tizim Hollandning RIASEC modeli, Explainable AI asosidagi kasbiy tavsiyalar, mehnat bozori tahlili va gamifikatsiya mexanizmlarini mujasamlashtiradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kasbga yo'naltirish, FuturePath AI, RIASEC modeli, Explainable AI (tushuntiriladigan SI), mehnat bozori tahlili, gamifikatsiya, ta'limni raqamlashtirish.

Abstract: Amid the digitalization of the education system in Uzbekistan, early identification of youth potential and mitigating professional skills mismatch are becoming highly relevant. This paper proposes and theoretically substantiates FuturePath AI, an intelligent career guidance platform designed for middle school students. Leveraging artificial intelligence, this system integrates Holland's RIASEC model, career recommendations based on Explainable AI, real-time labor market analytics, and gamification mechanisms.

Key words: artificial intelligence, career guidance, FuturePath AI, RIASEC model, Explainable AI, labor market analytics, gamification, digitalization of education.


Аннотация: В условиях цифровизации системы образования Узбекистана актуальное значение приобретают раннее выявление потенциала молодежи и преодоление дисбаланса профессиональных навыков. В статье предлагается и теоретически обосновывается интеллектуальная платформа FuturePath AI, предназначенная для учащихся средних школ. Данная система, основанная на искусственном интеллекте, интегрирует в себе психометрическое профилирование по модели RIASEC Дж. Холланда, профессиональные рекомендации на базе Explainable AI (объяснимого ИИ), анализ рынка труда в реальном времени и механизмы геймификации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, профориентация, FuturePath AI, модель RIASEC, Explainable AI (объяснимый ИИ), анализ рынка труда, геймификация, цифровизация образования.

KIRISH

Kasb tanlash jarayoni o'smirlik davrining eng muhim qarorlaridan biri hisoblanadi. Biroq o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda bu jarayon o'rta ta'lim tizimida yetarli darajada tizimli qo'llab-quvvatlanmaydi. Maktablar tayyorlayotgan kadrlar bilan mehnat bozori talab qilayotgan malakalar o'rtasidagi tafovut global miqyosda yaxshi o'rganilgan muammo hisoblanadi ^[9]. O'zbekiston sharoitida esa u alohida dolzarblik kasb etadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda ishsizlar soni 2025-yil holatida 745 ming nafarni tashkil etmoqda ^[10]. Mamlakatimizda 2020-yilda ishsizlik darajasi 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilda 4,8 foizga tushgan ^[10]. Biroq yoshlar ishsizligi darajasi hamon yuqori - 14,3 foiz atrofida bo'lib, ish bilan band bitiruvchilarning 41 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamayapti ^[10]. (1-rasm)



1-rasm: 2020-2025-yillarda O'zbekistonda ishsizlik darajasi

Bu holat nafaqat individual muammo, balki inson kapitalining noto'g'ri taqsimlanishi, qayta tayyorlash xarajatlarining ortishi va milliy mehnat unumdorligining pasayishiga olib keluvchi tizimli muammodir.

Ushbu maqolaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, platforma har bir o'quvchini individual shaxs sifatida - uning qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlar va rivojlanish trayektoriyasini - chuqur tushunishi bilan birga, mehnat bozorida real vaqt ma'lumotlariga ham ega bo'ladi. Shu orqali qaysi kasblar rivojlanayotgani, ularga qanday ko'nikmalar talab qilinayotgani va ularga olib boruvchi ta'lim yo'llari haqida aniq tavsiyalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global miqyosda ta'lim tizimini raqamlashtirish va kasbga yo'naltirish jarayonlariga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish bo'yicha salmoqli ilmiy-amaliy tajriba to'plangan bo'lib, ushbu yo'nalish ham xalqaro, ham mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli rakurslarda o'rganilgan.

Kasb tanlashda akademik va pedagogik modellarni raqamlashtirish masalalari xorijlik olimlar Lerkkanen va boshqalar^[4] tomonidan Finlyandiya ta'lim tizimi misolida tadqiq etilgan. Ular tizimli raqamli yo'naltirish o'quvchilarning kasbiy yetukligini oshirishi va maktabni tark etish ko'rsatkichlarini kamaytirishini isbotlaganlar. Biroq ularning yondashuvida iqtisodiy omillar va mehnat bozorining dinamik o'zgarishlari inobatga olinmagan, asosiy urg'u faqat konseptual-pedagogik refleksiya qaratilgan.

Sun'iy intellekt algoritmlarining shaffofligi (Explainable AI) va foydalanuvchi ishonchi muammosi Janubiy Koreyaning KRIVET instituti tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular SI tavsiyalarining asoslantirilgan bo'lishi o'quvchilar qoniqishini 34 foizga oshirishini aniqlaganlar^[3]. Shunga qaramay, ushbu tizimlarda o'quvchilar motivatsiyasini uzoq muddat ushlab turish uchun o'yinlashtirish (gamifikatsiya) mexanizmlari yetarlicha aks ettirilmagan. Singapur tajribasida esa SkillsFuture tizimi orqali kasbiy yo'naltirishni makroiqtisodiy ma'lumotlar bilan integratsiya qilish modellari muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan^[13], ammo bu tizimlar ko'proq kattalar va oliy ta'lim bitiruvchilariga moslashtirilgan bo'lib, o'rta maktab o'quvchilarining yosh psixologiyasini to'liq qamrab olmaydi.

O'zbekiston sharoitida ta'limni raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish muammolari mahalliy olimlar tomonidan ham faol o'rganilmoqda. Xususan, K.X. Mamatov va B.B. Alimovlar o'z tadqiqotlarida milliy ta'lim tizimida oliy va o'rta maxsus ta'lim bitiruvchilari o'rtasidagi malaka nomuvofiqligi hamda inson kapitalidan noto'g'ri foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilganlar^[6].

Sh.R. Qurbonov tomonidan maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik diagnostikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan^[11].

Shuningdek, respublikada sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etishning huquqiy va texnologik asoslari A.A. Nazarovning ishlarida ko'rib chiqilgan^[8]. Biroq mahalliy tadqiqotlarning aksariyati umumiy nazariy-pedagogik tavsifga ega bo'lib, ularda o'rta maktab o'quvchilarining individual psixologik profilini mehnat bozorining real vaqtdagi (real-time) ehtiyojlari va vakansiyalari bilan sun'iy intellekt algoritmlari orqali avtomatlashtirilgan tarzda bog'lovchi yaxlit raqamli yechimlar (platformalar) taklif etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'rta maktab o'quvchilarini kasbga intellektual yo'naltirish tizimini yaratish va uning konseptual arxitekturasi ishlab chiqish maqsadida kompleks tizimli yondashuv, matematik modellashtirish hamda nazariy-empirik baholash metodologiyalaridan foydalaniladi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligi, eng avvalo, muammoning poydevori hisoblangan real vaqt rejimidagi makroiqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar omborini shakllantirishdan boshlanadi. Buning uchun veb-skreping (web scraping) va API integratsiya usullari yordamida O'zbekiston Respublikasidagi ochiq davlat ma'lumotlar bazalari hamda yetakchi rekruting portallaridan ma'lumotlar yig'ilishi ko'zda tutilgan. Xususan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (vacancy.args.uz), Adliya vazirligi (vakansiya.adliya.uz), Transport vazirligi (mintrans.uz) kabi rasmiy platformalar hamda xususiy sektor vakillari (osonish.uz, tashkent.hh.uz) ma'lumotlari birlamchi empirik manba sifatida jamlanadi. Mazkur katta hajmdagi ma'lumotlar tarkibidagi hududiy bo'sh ish o'rinlari soni, o'rtacha va median ish haqi hamda talab etiladigan kompetensiyalar qiyosiy-statistik tahlil usullari orqali saralanadi.

Mehnat bozorining ushbu empirik ko'rsatkichlarini o'quvchining shaxsiy xususiyatlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida keyingi bosqichda matematik va psixometrik modellashtirish jarayoniga o'tiladi. O'quvchilarning individual qobiliyatlari va ish qadriyatlarini aniqlashda Hollandning RIASEC modeli hamda Super konsepsiyasi konseptual asos qilib olinadi [2]. Baholash aniqligini oshirish va an'anaviy testlardagi chiziqlilikni bartaraf etish orqali o'quvchiga tushadigan yuklamani kamaytirish maqsadida test topshiriqlari Item Response Theory (IRT) - Test topshiriqlariga javob reaksiyasi nazariyasi metodologiyasi yordamida adaptiv tarzda muvofiqlashtirilishi rejalashtirilgan. Tizimda kasbiy tavsiyalarni shakllantirish uchun ikki tomonlama algoritmik yondashuv sintez qilinadi: bir tomondan, o'xshash profildagi o'quvchilar xulq-atvoriga tayanuvchi kollaborativ filtrlash (collaborative filtering) mexanizmi qo'llanilsa, ikkinchi tomondan, o'quvchi kompetensiyalari va kasb talablari mutanosibligini tekshiruvchi kontentga asoslangan moslashtirish (content-based matching) algoritmi integratsiya qilinadi.

Algoritm bergan tavsiyalarni shunchaki statik ko'rinishda qoldirmay, ularning kelajakdagi istiqbolini ko'rsatish maqsadida mehnat bozoridagi keyingi 5 yillik ehtiyoj dinamikasi SARIMA (Seasonal Autoregressive Integrated Moving Average) mavsumiy avtoregressiv integrallashgan sirpanuvchi o'rtacha qiymat modeli asosida bashorat qilinadi. Bu model vaqt qatorlari tahlili orqali kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlarning noaniqlik diapazonlarini matematik hisoblash imkonini beradi.

Tadqiqotning eng muhim metodologik bosqichlaridan biri - sun'iy intellektning "qora quti" (black box) muammosini bartaraf etish va o'smir yoshidagi foydalanuvchida tizimga nisbatan ishonchni shakllantirishdir. Shu maqsadda ko'p faktorli o'yinlar nazariyasiga asoslangan SHAP (SHapley Additive exPlanations) algoritmidan foydalanish loyihalashtirilgan [5]. Ushbu metod har bir o'quvchiga berilgan kasbiy tavsiyaning shakllanishida qaysi shaxsiy parametr qanday vaznga ega bo'lganini matematik jihatdan ochiqlab, sodda va tushunarli tilda izohlab berishga xizmat qiladi. O'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va maktab ma'muriyati kabi to'rtta subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqani hamda o'quvchining ichki motivatsiyasini barqaror saqlash maqsadida esa Self-Determination Theory (SDT) - O'zini o'zi belgilash nazariyasi metodologik asos qilib olinadi [12]. Shu asosda tizimga tajriba ballari, yutuq nishonlari va haftalik kasbiy topshiriqlar kabi gamifikatsiya mexanizmlari singdiriladi.

Tadqiqot metodologiyasining yakuniy bosqichi inson omili va shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashning huquqiy-etik jihatlarini nazorat qilishga qaratiladi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni va xalqaro GDPR standartlariga muvofiq, o'quvchilar ma'lumotlarini psevdonimlashtirish hamda 16 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilar uchun ota-ona roziligini olish majburiy filtr sifatida o'rnatiladi. Shuningdek, tavsiyalarda gender tengligi va hududiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik (algorithmic bias) maqsadida algoritmik natijalar muntazam ravishda statistik auditdan o'tkazib boriladi. Matematik prognozlarining mutlaq emasligi inobatga olingan holda, natijalar o'quvchiga majburlovchi dogma emas, balki uning epistemik halollik prinsiplari asosida imkoniyatlarini kengaytiruvchi empirik ehtimolliklar ko'rinishida taqdim etilishi metodologik qoida sifatida belgilab qo'yiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi kasbiy ko'nikmalar nomuvofiqligini kamaytirish va ularning salohiyatini erta aniqlashda amaldagi an'anaviy usullar (qog'oz variantdagi testlar, statik ma'lumotnomalar) bugungi kun raqamli iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera olmayotgani ko'rinmoqda. Taklif etilayotgan FuturePath AI intellektual platformasining konseptual modeli an'anaviy kasbga yo'naltirish tizimlari bilan qiyosiy tahlil qilinganda, uning texnologik va uslubiy jihatdan bir qator tizimli muammolarni hal etishga qodirligi aniqlandi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, Explainable AI (XAI) va dinamik ma'lumotlar integratsiyasining o'zaro sinergiyasi foydalanuvchilar (o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar) uchun tavsiyalarning aniqlik darajasini va tizimga bo'lgan ishonchni tubdan oshirishga xizmat qiladi.



Ushbu tahlillar natijasida amaldagi an'anaviy kasbga yo'naltirish tizimlari va taklif etilayotgan FuturePath AI platformasining funksional hamda samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy mutanosibligi o'rganildi. (2-jadval)

2-jadval: An'anaviy kasbga yo'naltirish tizimlari va FuturePath AI platformasining samaradorlik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili

Baholash mezonlari va funksionalligi	An'anaviy kasbga yo'naltirish tizimlari	FuturePath AI intellektual platformasi	Kutilayotgan tizimli natija va samaradorlik
Psixometrik baholash mexanizmi	Statik va chiziqli qog'oz/elektron testlar (ko'p vaqt va yuqori yuklama talab etadi).	Item Response Theory (IRT) asosidagi adaptiv va moslashuvchan testlar.	O'quvchi yuklamasining 40% gacha kamayishi, test aniqligining ortishi.
Tavsiyalar shaffofligi va asosligi	"Qora quti" effekti yoki shunchaki umumiy natija (izohlarsiz tayyor kasb nomi).	Explainable AI (XAI) va SHAP algoritmlari orqali vizual asoslash.	Tavsiyalarga nisbatan o'quvchi va ota-onalarda ishonchning 34% ga ortishi.
Mehnat bozori bilan integratsiya	Mavjud emas yoki eskirgan statik ma'lumotnomalardan foydalaniladi.	Davlat va xususiy portallardan (argos.uz, hh.uz) real vaqtdagi (real-time) ma'lumotlar integratsiyasi.	Kadrlar tayyorlash va real bozor talabi o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlanishi.
Kelajak trendlarini bashorat qilish	Faqat joriy vaziyatga tayaniladi, kelajak prognozlar mavjud emas.	SARIMA vaqt qatorlari modellari yordamida 5 yillik ehtiyoj prognozlarini.	Kelajakda yo'qolib boruvchi kasblarga adashib yo'naltirish xavfining kamayishi.
Foydalanuvchi motivatsiyasi va jalb etilishi	Zerikarli, bir martalik va majburiy xarakterga ega jarayon.	Self-Determination Theory (SDT) va mukofotlashga asoslangan gamifikatsiya.	Platformadan muntazam foydalanish va kasbiy sayohatga qiziqishning ortishi.
Inklyuzivlik va ijtimoiy tenglik	Sifatli konsalting faqat yirik shaharlarda yoki pullik markazlarda mavjud.	Chekka hududlardagi maktablar uchun ham mutloq ochiq raqamli tizim.	Hududlararo raqamli uzilishning (digital divide) 18% gacha qisqarishi.
Baholash mezonlari va funksionalligi	An'anaviy kasbga yo'naltirish tizimlari	FuturePath AI intellektual platformasi	Kutilayotgan tizimli natija va samaradorlik

Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, an'anaviy tizimlarning eng zaif nuqtasi - ularning mehnat bozorida uzilib qolganligi va o'quvchiga "nima uchun aynan shu kasb tanlandi?" degan savolga javob bera olmasligidir. FuturePath AI platformasida qo'llaniladigan SHAP algoritmi esa har bir tavsiyani o'quvchining shaxsiy iqtidori va bozor trendlari kesimida tushuntirib berish orqali ushbu muammoni tubdan hal etadi.

Shuningdek, SARIMA modeli yordamida shakllantiriladigan 5 yillik iqtisodiy prognozlar va hududiy vakansiyalar tahlili respublikamizda kuzatilayotgan 41 foizlik malaka nomuvofiqiligini (skills mismatch) kelajakda sezilarli darajada pasaytirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya mexanizmlarining ko'p rolli tizim (o'quvchi, ota-ona, o'qituvchi, maktab ma'muriyati) bilan integratsiyalashuvi esa kasb tanlash jarayonini oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik maydoniga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida inson kapitalini to'g'ri taqsimlash, qayta tayyorlash xarajatlarini tejash va milliy mehnat unumdorligini oshirish kabi strategik vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston maktablarida maxsus maslahatchilar va uslubiy vositalar yetishmasligi sababli yuzaga kelayotgan 41 foizlik kasbiy malaka nomuvofiqiligi hamda yoshlar ishsizligi muammosini faqat innovatsion raqamli yechimlar orqali hal etish mumkin. Mazkur maqolada respublika o'rta ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan, sun'iy intellekt asosidagi FuturePath AI kasbiy yo'naltirish platformasining konseptual modeli, ilmiy asoslari va joriy etish mexanizmlari bayon qilindi. Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'g'ri loyihalashtirilgan raqamli tizimlar o'quvchilarda kasbiy yetuklik, qaror qabul qilishdagi ishonch va teng imkoniyatlarni sezilarli darajada oshiradi.

Taklif etilayotgan platforma Hollandning RIASEC modelini zamonaviy Explainable AI (XAI), SHAP algoritmlari va SARIMA vaqt qatorlari modellari bilan sintez qiladi. Tizimning asosiy innovatsion jihatlari - shaffof tavsiyalar, dinamik psixometrik profil yaratish, real vaqtdagi mehnat bozori integratsiyasi hamda hududiy raqamli tafvutni bartaraf etuvchi oflayn ishlovchi ko'p tilli PWA arxitekturasi iborat. Bu esa o'quvchilarga o'z iqtidorini aniqlash barobarida dasturiy ta'minot, logistika, biotibbiyot va aqlli qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlardagi kelgusi 5 yillik real bozor ehtiyojlarini aniq prognoz qilish imkonini beradi.

Yakuniy xulosa sifatida, mazkur tizim har bir o'quvchiga, uning hududi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ongli kasbiy tanlov qilish imkoniyatini yaratadi. Loyihaning gamifikatsiya elementlari va ko'p rolli ekotizimi o'smirlarning ichki motivatsiyasini barqaror ushlab turishga xizmat qiladi. Agar taklif etilayotgan pilot loyiha muvaffaqiyatli natijalar bersa, uni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida milliy miqyosda joriy etish uchun kuchli asos yaratiladi hamda u inson kapitalini to'g'ri taqsimlash va milliy mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli drayver vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Box, G. E., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C., & Ljung, G. M. (2015). *Time series analysis: forecasting and control* (5th ed.). John Wiley & Sons.
2. Holland, J. L. (1997). *Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments* (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.
3. KRIVET (Korea Research Institute for Vocational Education and Training). (2022). *Analysis of AI-based Career Recommendation Systems and Learner Satisfaction on CareerNet*. KRIVET Research Report, Seoul.
4. Lerkkanen, M. K., et al. (2021). The role of career guidance in student engagement and dropout prevention in Finnish schools. *Finnish Journal of Education*, 52(3), 215-228.
5. Lundberg, S. M., & Lee, S.-I. (2017). A unified approach to interpreting model predictions. *Advances in Neural Information Processing Systems* (NeurIPS 2017), 30, 4765-4774.
6. Mamatov, K. X., & Alimov, B. B. (2023). O'zbekiston mehnat bozorida inson kapitali va malaka nomuvofiqligi tahlili. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(2), 45-52.
7. NACAC (National Association for College Admission Counseling). (2023). *State of College Admission: Technology and Equity in Career Guidance*. NACAC Annual Report, Arlington, VA.
8. Nazarov, A. A. (2024). O'zbekiston raqamli iqtisodiyotida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari. *Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar axborotnomasi*, 3(4), 18-27.
9. OECD. (2021). *OECD Skills Outlook 2021: Learning for Life*. OECD Publishing, Paris.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha hisoboti. Toshkent.
11. Qurbonov, Sh. R. (2022). Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy pedagogik-psixologik tizimi. *Pedagogika jurnali*, 6(1), 112-119.
12. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68-78.
13. SkillsFuture Singapore. (2023). *Skills Demand for the Future Economy: Report 2023/24*. SkillsFuture SG National Portal.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.